

Klinik ordinatura (rezidentura)ga oʻqishga qabul qilish uchun hujjat topshirish va tanlov oʻtkazish tartibi

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur tartib Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadigan mutaxassisliklar boʻyicha tayanch oliy tibbiy maʼlumotga ega boʻlgan shifokorlar, ilgari klinik ordinatura (rezidentura) yoki magistraturani tamomlagan hamda ixtisosidan tashqari ikkinchi mutaxassislikni olishni xohlagan tibbiyot kadrlari (keyingi oʻrinlarda - talabgor)ning shifokorlik mutaxassisliklari boʻyicha klinik ordinatura (rezidentura)ga qabul qilish uchun hujjat topshirish va tanlov oʻtkazishni belgilaydi.

2. Talabgorlarning tibbiyot muassasa (tashkilot)lariga klinik ordinatura (rezidentura) va internaturaga oʻqishga qabul qilish uchun hujjat topshirishi va tanlov oʻtkazilishi Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini baholash markazi (keyingi oʻrinlarda – Markaz) tomonidan amalga oshiriladi.

2-bob. Talabgorlarni tibbiyot muassasa (tashkilot)lariga klinik ordinatura (rezidentura) va internaturaga oʻqishga qabul qilish uchun hujjat topshirishi

3. Klinik ordinatura (rezidentura) va internaturaga oʻqishga kirish uchun talabgorlar tomonidan topshiriladigan hujjatlar Markazning **medtoifa.ssv.uz** axborot tizimi orqali elektron shaklda qabul qilinadi.

4. Soʻrovnoma medtoifa.ssv.uz axborot tizimi orqali dam olish va bayram kunlaridan qatʼi nazar, har kuni 24 soat davomida yuborilishi mumkin.

Bunda, soʻrovnomalar ish vaqtidan keyin yoki dam olish va bayram kunlari tushganda, navbatdagi ish kuni soʻrovnomalarning qabul komissiyasiga tushgan va qabul komissiyasi tomonidan qabul qilingan kun hisoblanadi.

5. Talabgor klinik ordinatura (rezidentura) va internaturaga oʻqishga kirish uchun tibbiyot muassasalarining qabul komissiyasiga Markazning **medtoifa.ssv.uz** axborot tizimi orqali mustaqil ravishda ushbu Tartibning 1-ilovasiga muvofiq **elektron shakldagi soʻrovnomani** toʻldiradi.

Soʻrovnomaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjat (yoki diplomdan ko'chirma - O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarini davlat granti bo'yicha o'qib tugatganlar uchun) hamda unga ilova;

O'zbekiston Respublikasining fuqarolari hisoblanadigan, boshqa davlatlarda tibbiyot oliy ta'lim muassasalarini tugatgan shifokorlar uchun oliy tibbiy ma'lumot to'g'risidagi hujjati belgilangan tartibda nostrifikatsiya qilinganligi (hukumatlar o'rtasidagi bitim bilan tan olingan davlatlar bundan mustasno) hujjati;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq o'qishga kirishda imtiyoz beruvchi hujjat (olis va chekka hududlarda uzluksiz uch yil ishlaganligi to'g'risidagi hududiy sog'liqni saqlash boshqaruvi organi tomonidan tasdiqlangan ma'lumot).

Ko'rsatib o'tilgan hujjatlar mavjud bo'lganda qabul komissiyasi talabgorning hujjatlarini qabul qilishni rad etishga haqli emas.

Talabgorning klinik ordinatura (rezidentura) va internaturaga kirish uchun bir vaqtning o'zida bir nechta muassasada tanlovda qatnashishi taqiqlanadi.

Taqdim etilgan hujjatlardagi ma'lumotlarning haqqoniyligiga talabgor mas'ul hisoblanadi.

6. Har bir muassasa (tashkilot)ning klinik ordinatura (rezidentura) va internatura bo'yicha qabul komissiyasi mas'ul kotiblari medtoifa.ssv.uz axborot tizimi orqali talabgorlarning bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga muvofiq keluvchi klinik ordinatura (rezidentura) va internatura mutaxassisliklari bo'yicha hujjatlarini qabul qilishga mas'uldir.

7. Talabgorning hujjatlari qabul komissiyasi tomonidan o'rganib chiqiladi va talabgorni tanlovga qo'yish yoki qo'ymaslik to'g'risida qaror qabul qiladi.

Bunda, qabul komissiyasi mas'ul kotiblari tomonidan **bir ish kuni** davomida medtoifa.ssv.uz axborot tizimi orqali talabgorga asoslantirilgan xabarnoma yuboriladi.

Talabgor hujjatlari rad etilgan taqdirda, qabul komissiyasi tomonidan ushbu tartibga muvofiq rad etish to'g'risidagi xabarnoma rad etish sabablari va talabgor ushbu sabablarni bartaraf etib, mazkur o'quv yili uchun hujjat qabul qilishning belgilangan oxirgi kuniga qadar takroran ko'rib chiqish uchun hujjatlarni taqdim etishi mumkinligi ko'rsatilgan holda, medtoifa.ssv.uz axborot tizimi orqali uning shaxsiy kabinetiga elektron shaklda yuboriladi.

Talabgorga rad etish sabablari bartaraf etilishi uchun taqdim etilgan muddat davomida qayta taqdim etilgan hujjatlar ko'rib chiqiladi.

Rad etish to'g'risidagi xabarnomada ko'rsatilgan muddat tugagandan so'ng berilgan ariza ko'rib chiqilmaydi.

8. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi klinik ordinaturaga qabulni o'tkazish uchun respublika ommaviy axborot vositalarida tanlov e'lon

qiladi, arizalar berish muddati e'lon chop etilgan kundan boshlab kamida 30 kundan iborat qilib belgilanadi.

Ariza berish muddati talabgorga rad etish sabablari bartaraf etilishi uchun taqdim etilgan muddat davomida qayta taqdim etilgan arizalar uchun tatbiq etilmaydi.

3-bob. Tanlov jarayonlarini o'tkazish tartibi

9. Talabgorlarni tibbiyot muassasa (tashkilot)lariga klinik ordinatura (rezidentura) va internaturaga o'qishga qabul qilish tanlov jarayonlari bir bosqichli **kompyuter-test sinovlari shaklida** Markaz va uning hududiy bo'limlari tomonidan amalga oshiriladi.

10. Test sinovini topshirishda talabgor testga kirish ruxsatnomasi, shaxsini tasdiqlovchi hujjatning asl yoki elektron nusxasi (fuqarolik pasporti, identifikatsiya ID-kartasi, fuqaroning xorijga chiqish biometrik pasporti yoki haydovchilik guvohnomasi kabilar)ni taqdim etadi.

Shaxsni tasdiqlovchi hujjatga ega bo'lmagan yoki test sinoviga kechikkan talabgorlar test sinovi jarayonlariga qo'yilmaydi.

11. Test sinovining ochiq va oshkora o'tkazilishini ta'minlash uchun test-sinovi jarayoni Markazning rasmiy veb-saytida onlayn translyatsiya qilinadi hamda audio va videoyozuvlarda qayd etib boriladi va videotasvir Markazda kamida bir yil saqlanadi.

12. Test sinovi uchun 50 daqiqa vaqt ajratiladi. Test sinovi davrida har bir testdan o'tuvchiga 50 ta savol beriladi. Har bir savol 1,1 balli tizimda baholanadi. Maksimal ball 55 ball (100 foiz)ni tashkil etadi.

klinik ordinatura (rezidentura) va mutaxassisligiga mos ravishda tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi va baholash mezonlari mazkur Tartibga 2-ilogaga muvofiq amalga oshiriladi.

Test variantlari tafsilotlari va foydalanish uchun tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati test sinovi o'tkazilishidan kamida 10 kun oldin Markazning rasmiy saytida e'lon qilinadi.

13. Test sinovlari yakunida medtoifa.ssv.uz axborot tizimidan avtomatik ravishda olinadigan ma'lumotlar asosida test sinovi qaydnomasi shakllantiriladi.

Test sinovi qaydnomasida quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

test sinovi o'tkazilgan joy va sana;

test sinovida hozir bo'lgan va kelmagan talabgorlar ro'yxati;

har bir talabgorning familiyasi, ismi va otasining ismi, mutaxassisligi va boshqa ma'lumotlar, shuningdek, test sinovi natijasida olingan ballar ko'rsatiladi.

Test sinovi qaydnomasi tanlov yakunlangandan so'ng uch ish kuni ichida belgilangan tartibda Sog'liqni saqlash vazirligiga taqdim etiladi va Markazning rasmiy veb saytida e'lon qilinadi.

14. Test sinovidan o'ta olmagan talabgor test sinovi o'tkazilgan kundan boshlab o'ttiz ish kuni ichida Markazga apellyatsiya berish huquqiga ega. Apellyatsiya yozma ravishda taqdim etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi apellyatsiya shikoyatini ko'rib chiqishda zarur hollarda, talabgor yoki betaraf mutaxassislarni taklif qilishi mumkin.

Apellyatsiya komissiyasi tarkibi Markaz tomonidan kamida besh nafar a'zodan, shu jumladan, komissiya raisi, rais o'rinbosari va kotibidan iborat tarkibda tasdiqlanadi.

Apellyatsiya komissiyasi o'n ish kuni ichida kiritilgan apellyatsiyani ko'rib chiqadi va talabgorga qabul qilingan qaror haqida yozma ravishda xabar beradi.

15. Apellyatsiyani ko'rib chiqish natijalari yuzasidan apellyatsiya komissiyasi tomonidan quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:

test sinovi natijalarini (yozma ravishda asoslangan xat asosida) o'zgarishsiz qoldirish va apellyatsiyani qanoatlantirishni rad etish to'g'risida;

apellyatsiyani qanoatlantirish va talabgor test sinovini topshirgan deb hisoblash to'g'risida;

talabgorni takroran test sinoviga qo'yish to'g'risida.

16. Test sinovi natijalarini o'zgarishsiz qoldirish va apellyatsiyani qanoatlantirishni rad etish to'g'risidagi qaror quyidagi hollarda qabul qilinadi:

apellyatsiya mazkur tartib talablarini buzgan holda taqdim etilgan bo'lsa;

apellyatsiyada ko'rsatilgan vajlar o'z tasdig'ini topmasa.

17. Test sinovini takroran o'tkazish to'g'risidagi qaror apellyatsiya bergan talabgorning test sinovi mazkur tartib talablariga zid ravishda o'tkazilganligi holatlari aniqlangan taqdirda qabul qilinadi.

18. Markaz tomonidan apellyatsiya bergan talabgor uchun test sinovini takroran o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, takroriy test sinovi mazkur tartibda belgilangan tartibda o'tkaziladi.

Bunda test sinovi tartib talablariga zid ravishda o'tkazilganligi holatlari aniqlangan taqdirda, apellyatsiya bergan talabgor uchun test sinovi takroran o'tkazilishini inobatga olgan holda, test sinovi takroran bepul o'tkaziladi.

19. O'tkazilgan bitta test sinovi yuzasidan takroran apellyatsiya berilmaydi.

20. Markazning qarori ustidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda sudga shikoyat qilinishi mumkin.

4-bob. Yakuniy qoidalar

21. Tibbiyot va farmatsevtika xodimlariga Klinik ordinatura (rezidentura) va mutaxassisliklari bo'yicha o'qishga qabul qilish uchun bir bosqichli kompyuter-test sinovlarini o'tkazish jarayonida barcha texnik va dasturiy vositalarning uzluksiz ishlashi ta'minlanishi uchun test sinovi o'tkazilayotgan tashkilot rahbari mas'ul etib belgilanadi.

22. Markaz o'z faoliyatini amalga oshirishi natijasida olingan ma'lumotlarning sir saqlanishini ta'minlaydi.

23. Talabgor davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining xatti-harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda shikoyat qilishlari mumkin.

24. Mazkur tartib talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Tibbiyot kadrlarini shifokorlik mutaxassisliklari
bo'yicha klinik ordinatura (rezidentura) va
internaturaga o'qishga qabul qilish uchun hujjat
topshirish va tanlov o'tkazish tartibiga
1-ilova

**Klinik ordinatura (rezidentura) va bo'yicha hujjat topshirish uchun
SO'ROVNOMA**

I. Talabgor to'g'risida ma'lumot		
1.	Ta'lim olgan tibbiyot yoki ta'lim tashkiloti nomi:	talabgor tomonidan to'ldiriladi
2.	Bakalavriat ta'lim yo'nalishi nomi	talabgor tomonidan tanlanadi
3.	Ilgari tamomlagan klinik ordinatura (rezidentura) yoki mutaxassisligi nomi (mavjud bo'lganda) ikkinchi mutaxassislikka topshirayotgan talabgorlar uchun	talabgor tomonidan to'ldiriladi
4.	Hujjat topshirayotgan muassasa nomi	talabgor tomonidan tanlanadi
5.	Talabgorlik qilayotgan klinik ordinatura (rezidentura) yoki mutaxassisligi nomi	talabgor tomonidan tanlanadi
6.	Test sinovi topshiradigan hudud nomi	talabgor tomonidan tanlanadi
II. Qabul rejasi bo'yicha:		
7.	Maqsadli o'ringa (hudud nomi ko'rsatilishi lozim)	talabgor tomonidan tanlanadi
8.	Erkin o'ringa	talabgor tomonidan tanlanadi
9.	Imtiyozni (agar bo'lsa) tasdiqlovchi hujjat	talabgor tomonidan ma'lumot yuklanadi

Tibbiyot kadrlarini Shifokorlik mutaxassisliklari
bo'yicha klinik ordinatura (rezidentura) va
internaturaga o'qishga qabul qilish uchun hujjat
topshirish va tanlov o'tkazish tartibiga
2-ilova

**“Davolash ishi”, “Professional ta’lim(Davolash ishi)”, “Tibbiy profilaktika ishi”, “Tibbiy
biologiya ishi” va “Xalq tabobati” ta’lim yo‘nalishlariga klinik ordinatura
mutaxassisliklariga mos uchta fan bo‘yicha test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi**

Fanlar nomi	Test topshiriqlari soni	Baholash mezonlari	Maksimal ball
“Davolash ishi”, “Professional ta’lim (Davolash ishi)” ta’lim yo‘nalishlariga klinik ordinatura mutaxassisliklariga mos uchta fan bo‘yicha			
Terapiya	17	1.1 ball	18,7 ball
Xirurgiya	17	1.1 ball	18,7 ball
Akusherlik va ginekologiya	16	1.1 ball	17,6 ball
Jami:	50		55,0 (100 foiz)
“Tibbiy profilaktika ishi” ta’lim yo‘nalishiga klinik ordinatura mutaxassisliklariga mos uchta fan bo‘yicha			
Epidemiologiya	17	1.1 ball	18,7 ball
Mehnat gigiyenasi	17	1.1 ball	18,7 ball
Bolalar va o‘smirlar gigiyenasi	16	1.1 ball	17,6 ball
Jami:	50		55,0 (100 foiz)
“Tibbiy biologiya ishi” ta’lim yo‘nalishiga klinik ordinatura mutaxassisliklariga mos uchta fan bo‘yicha			
Laboratoriya ishi	17	1.1 ball	18,7 ball
Mikrobiologiya	17	1.1 ball	18,7 ball
Tibbiy va biologik kimyo	16	1.1 ball	17,6 ball
Jami:	50		55,0 (100 foiz)
“Xalq tabobati” ta’lim yo‘nalishiga klinik ordinatura mutaxassisliklariga mos uchta fan bo‘yicha			
Reabilitologiya	17	1.1 ball	18,7 ball
Fizioterapiya	17	1.1 ball	18,7 ball
Xalq tabobati falsafasi	16	1.1 ball	17,6 ball
Jami:	50		55,0 (100 foiz)

**“Pediatriya ishi” ta’lim yo‘nalishiga klinik ordinatura mutaxassisliklariga mos uchta fan
bo‘yicha test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi**

Fanlar nomi	Test topshiriqlari soni	Baholash mezonlari	Maksimal ball
“Pediatriya ishi” ta’lim yo‘nalishiga Klinik ordinatura mutaxassisliklariga mos uchta fan bo‘yicha			
Pediatriya	17	1.1 ball	18,7 ball
Bolalar xirurgiyasi	17	1.1 ball	18,7 ball

Terapiya	16	1.1 ball	17,6 ball
Jami:	50		55,0 (100 foiz)

“Stomatologiya” va “Bolalar stomatologiyasi” ta’lim yo‘nalishlariga Klinik ordinatura mutaxassisliklariga mos uchta fan bo‘yicha test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi

Fanlar nomi	Test topshiriqlari soni	Baholash mezonlari	Maksimal ball
“Stomatologiya” ta’lim yo‘nalishiga Klinik ordinatura mutaxassisliklariga mos uchta fan bo‘yicha			
Terapevtik stomatologiya	17	1.1 ball	18,7 ball
Ortopedik stomatologiya	17	1.1 ball	18,7 ball
Jarrohlik stomatologiya	16	1.1 ball	17,6 ball
Jami:	50		55,0 (100 foiz)
“Bolalar stomatologiyasi” ta’lim yo‘nalishiga Klinik ordinatura mutaxassisliklariga mos uchta fan bo‘yicha			
Bolalar terapevtik stomatologiyasi	17	1.1 ball	18,7 ball
Bolalar xirurgik stomatologiyasi	17	1.1 ball	18,7 ball
Ortodontiya	16	1.1 ball	17,6 ball
Jami:	50		55,0 (100 foiz)